

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN ELEKTR
STANSIYALARI VA ELEKTR TARMOQLARI ELEKTR JIHOZLARIGA
TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISH TEXNOLOGIYASI FANIDAN MALAKA
TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN ELEKTR STANSIYALARI VA ELEKTR TARMOQLARI ELEKTR JIHOZLARIGA TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISH TEXNOLOGIYASI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Elektr stansiyalari va elektr tarmoqlari elektr jihozlariga texnik xizmat ko‘rsatish texnologiyasi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Elektr stansiyalari va elektr tarmoqlari elektr jihozlariga texnik xizmat ko‘rsatish texnologiyasi

1. Elektr tizim va tarmoqlari to‘g‘risida umumiy hamda elektr jihozlari haqida asosiy ma‘lumotlar;
2. Elektr tarmog‘i korxonalaridan foydalanishni tashkillashtirish;
3. Havodagi elektr uzatish va kuch kabel liniyalarini ishlatish va ta‘mirlash;
4. Taqsimlovchi qurilmalarni ishlatish va elektr jihozlarini ta‘mirlash;
5. Kuch transformatorlari va avtotransformatorlarini ishlatish va ta‘mirlash;
6. Boshqaruv shitlari va avtomatika, telemexanika qurilmalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni ishlatish;
7. Stansiya va podstansiyalarning elektr tutashuv sxemalarida tezkor uzib-
ulashlarni amalaga oshirish.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Elektr tizim va tarmoqlari to'g'risida umumiy hamda elektr jihozlari haqida asosiy ma'lumotlar	Elektr stansiyalari va elektr jihozlari haqida umumiy bilimlarga ega bo'lish, elektr energiyasini ishlab chiqarish jarayonlari. Elektr stansiyasi, uzatuvchi elektr tarmog'i, taqsimlovchi qurilma hamda podstansiya, taqsimlash punkti haqidagi asosiy bilimlarni o'zlashtirish. Transformatorlar haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim.	10 ta
2	Elektr tarmog'i korxonalaridan foydalanishni tashkillashtirish	Elektr tarmog'i korxonalarining ishlab chiqarish tuzilmasi va ularni boshqarish haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish. Energotizimning markazlashgan dispechrlilik boshqaruvi va texnik tezkor hujjatlari haqida bilishi lozim.	4 ta
3	Havodagi elektr uzatish va kuch kabel liniyalarini ishlatish va ta'mirlash	1000 V gacha kuchlanishli havodagi elektr uzatish liniyalarini montaji hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish borasidagi umumiy ma'lumotga ega bo'lish. Liniyalarning muddatli kapital ta'miri, hamda davriy ravishda ko'rikdan o'tkazish, tayanchlarning davriy ko'rigini nazorat qilishning qoidalarini bilish lozim.	4 ta
4	Taqsimlovchi qurilmalarni ishlatish va elektr jihozlarni ta'mirlash	Taqsimlovchi qurilmaga qo'yiladigan talablar, uzgichlarning vazifasi, qisqa tutashuv toklarini cheklash uchun amalga oshiriladigan ishlar tahlilini bilish. Ajratkichlar, bo'lgichlar va qisqa tutashtirgichlar haqida asosiy ma'lumotlarga ega bo'lish. Quruq betonli reaktorlar, yoy so'ndiruvchi g'altaklar va o'lchov transformatorlarning ishlatilish sohaları va holatlarini bilishi lozim.	6 ta
5	Kuch transformatorlari va avtotransformatorlarni ishlatish va ta'mirlash	Transformatorlar. Parchalangan chulg'amli transformatorlar hamda avtotransformatorning qo'llanilishi, transformatorlarning parallel ishlashi, ularni ta'mirlash usullari, transformatsiyalash ko'effisienti va qisqa tutashuv kuchlanishi haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish. Transformatorlarning qizishi hamda ularning sovitish sistemasini bilish. Transformatorning davriy va kapital ta'miri, transformator moyining vazifasi haqida asosiy ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim.	4 ta
6	Boshqaruv shitlari va avtomatika, telemexanika qurilmalariga texnik	Boshqaruv shitlari va yordamchi qurilmalar, ikkilamchi qurilmalarni, bloklash va zaminlash qurilmalarini ishlatish va sinash bo'yicha asosiy ma'lumotlarni bilish. Avtomatika va telemexanika	6 ta

	xizmat ko'rsatish va ularni ishlatish	qurilmalarni ishlatish haqida ham amaliy ham nazariy bilimga ega bo'lishi lozim.	
7	Stansiya va podstansiyalarning elektr tutashuv sxemalarida tezkor uzib-ulashlarni amalaga oshirish	Tezkor tok manbalari, uzib-ulashlar tartibi, rele himoyasi va avtomatika, kommunikatsion apparatlarda amallar bajarish haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi. Yig'uvchi shinalar tizimini va uzgichlarni ta'mirga chiqarish bo'yicha bilim va malakaga ega bo'lishi lozim.	6 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtixon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtixon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki

elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. "Elektr tarmoqlari jihozlarini yig'ish, sozlash, ishlatish texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash" Kasb-hunar kollejlari uchun darslik - T.Sh. G'oyibov. T. «ILM ZIYO», 2017

2. "Elektr tarmoqlari va tizimlari" O'quv qo'llanma - A.M. Safarov, T.Sh. G'oyibov, A.X. Sulliyev. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T., Tafakkur bo'stoni, 2013.

3. "Elektr ta'minoti" Kasb-hunar kollejlari uchun darslik-N. Usmonxo'jayev, B. Yoqubov, A. Qodirov.- T. «Fan va texnologiya», 2007

4. Elektr tarmoqlari va tizimlari. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. G'oyibov T.Sh. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: «Voris nashriyoti», 2010.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*